

MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O`ZBEKISTON DAVLAT SAN`AT VA MADANIYAT INSTITUTI

R E F E R A T
“KINO REJISSORI”

Bajardi: 1-kurs kino,televideniye va radio
rejissorligi bo`limi talabasi Abduraxmonov Botir

Tekshirdi: Mohigul Hamroyeva

Toshkent-2013

KINO REJISSORI

Bu borliqni san'atsiz tasavvur qilish qiyin . San'atning paydo bo'lish tarixi ham insoniyat paydo bo'lish davrlariga borib taqaladi . San'at kishining extiyohlari tufayli o'zlari bilmagan holda paydo bo'lgan .San'atga qisqacha qilib ” Real hayotni badiiy obrazlar orqali aks ettirish” - deya tarif berishimiz mumkindir. San'atning ko'p turlari mavjud, masalan: tasviriy san'at, teatr san'ati,musika san'ati va eng navqiron ba ommalashib borayotgan kino sa'atidir. Bu san'at turi XX asrning g'aroyib kashfiyoti bo'ldi. 1895-yilda 28-dekabrda Parijda aka uka Lyummerlar tomonidan ilk bor filmlar namoyish etila boshladi. “Poezdning kelishi”, ”Bolaning ovqatlanishi” kabi filmlar kino san'atining dastlabki namunalari hisoblanadi. Kinoning vujudga kelishi ham fan texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo'lgan san'at turlarining erishgan yutuqlari bilan bog'liqdir.Buyuk kinorejissor S Eyzenshteynning takidlashicha “Kino tarixi ran tasvir tarixining bir qismidir” . Kino atamasi yunoncha “kineo”-“harakat qilaman ” degan ma'noni bildiradi, huddi shunday dastlabki kinolar ham faqat tasvir orqali o'z ifodasini topa boshladi. Bu mo'jiza tez orada butun dunyoni qamrab ola boshladi.

Kinoning yurtimizga kirib kelishi: Buxoroda tug'ilib o'sgan Xudoybergan Devonov o'z qiziqishlarini amalga oshirish maqsadida Rossiyadan fotoapparat va tasvir uchun zarur asbob anjomlarni yurtimizga olib keldi va dastlabki ishlarini Buxoro obidalarining tasvirini keng ommaga namoyish etish bilan boshladi. Bir insonning jonkuyarligi keyinchalik shu sohaga o'z hayotlarini bag'ishlagan mutaxassislar tufayli yurtimizda kino san'ati keng quloch yoydi. Dastlab kinolar sodda tarzda oddiy matolalarda ovozsiz holda imkoniyatlari keng darajada ochilmagan. Kino san'ati yuzaga kelibtiki avvalo u bilan bu kasbning ilk namoyondalari” noprofessional”mutaxassislar shug'ullana boshlagan .Keyinchalik esa kinoning rivojlanish bosqichiga kelib kinoga katta jamoaning mehnati biriktirilgan.

Kino - bu sentetik san'atdir. Kino butun bir jamoaning tinimsiz menati natijasida yuzaga keladi. Unda ishlayotgan har bir mutahassis o'z sohasini puxta egallagan bo'lishi talab etiladi. Rassommi, bastakormi, grimyormi, operatormi hammasining mehnatini birlashtiruvchi va yuzaga chiqaruvchi bu rejissordir.

Rejissor va rejissura tushunchasi ommalashganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi. XVIII-XIX asrga kelib teatr asarlarini sahnalashtiruvchi shaxsga ehtiyoj tug'ildi. Avvallari aktiyorlar o'zlari o'ynab tomosha ko'rsatar kichik – kichik sahna asarlari o'ynashar edi. Rejissorlik kasbi paydo bo'lganidan keyin teatr san'ati yanada takomillasha boshladi. Teatrda rejissorlar barcha maqsadlarini amalga oshirolmas, imkoniyatlari cheklangan..O'z o'zidan ma'lumki kino paydo bo'lgach teatr rejissorlarining imkoniyatlari yanada kengaydi teatrda amalga oshirolmagan rejalarini kinoga ko'chira boshladi. Rejissor atamasi fransuzchadan olingan bo'lib “boshqaraman ” degan ma'noni anglatadi. Teatr rejissoridan farqli o'laroq kino rejissorning faoliyati judayam mushkuldir.Teatrda rejissor bir asar ustida bir necha oy ishlaydi, kino rejissor ham huddi shunday,u ham,bir san'at asari ustida bir necha oy ishlaydi. Teatrda anglanmagan hatoni keyingi taqdimotga qadar to'g'rilash mumkin..Kinoda esa bir marta tomoshabinga taqdim etildimi uni qaytadan xatolarini to'g'rilashning iloji yo'q. Shuning uchun kinorejissorlik kasbi o'ta sinchkov va zehnli bo'lishini talab etadi. Qolaversa kinorejissor butun bir jamoaning ishini bir paytning o'zida nazorat qilib turishi lozim.

Kino butun jamoaning uyg'unligini talab etadi. Ana shunday uyg'unlikni yaratuvchi inson rejissordir. Badiiy kino ishlab chiqarishni jahon tajribasidan kelib chiqib 4 ta bosqichga bo'lamiz. 1ssenariy,2 tayyorgarlik 3 suratga olish 4 montaj va sayqal jarayoni.

Buyuk rejissorlarimizdan biri F Fellini “Film ishlab chiqarish juda ham murakkab tashkillashtirishni talab qiladi ,bu narsalar yengil yelpi qaralishni rad etadi. Kuniga yuz martadan aktiyorlarni, svetni, kadrni, kiyimni aktiyor nutqini, tasvir optikasini ko'rib berishiga to'g'ri keladi. Agar shularning barchasi qat'iy

tartibga keltirilmasa film amalga oshmaydi diyavering” degan fikrlarni bildiradi. Mizansahna tushunchasi ham kinorejissorlar uchun yod atama emas. Mizonsahna orqasida tasavvur ko’ra olish qobiliyati yotadi rejissor filmning boshdan oyoq mizansahnasini film g’oyasidan kelib chiqib maqsadga muvofiq tarzda qurib chiqadi. Kinorejissordan juda katta mehnat talab etiladi, ssenariy tanlanishidan tortib to kinoning qanday natija berishigacha rejissor javobgar hisoblanadi. U tanlangan ssenariy asosida o’zining rejissorlik ssenariysini, mukammal rejasini tuzadi. Rejissorlik ssenariysida har bir kadr har bir aktiyor, harakatlari planlar, rakurslar, metrajlar va filmda qatnashadigan har bir ijrochining hatti harakati qayd etilgan bo’lishi filmni maxsus rejissor bilan boshlashi uning haqiqiy kasb egasi ekanligidan dalolat beradi. Rassom bilan birgalikda filmning qog’ozdagi variantini yaratadi, obrazlarga aktiyor tanlaydi, aktiyorlarni ham shunchaki emas qahramonlar xarakteridan kelib chiqib, qahramonlar xususiyatlarini o’rganib so’ngra aktiyor tanlash bosqichiga o’tadi. Film boshlangach suratga olish maydonida rejissorning saviyasi sinalladi. Film jarayonlarining so’nngi bosqichlaridan yana biri montaj jarayonidir. Montajda film qaytatdan tug’iladi. Montaj to’g’risida kinorejissor M.Rom shunday yozadi “Voqealarni quyushtirish,vaqtni qisqartirish,yoki cho’zish, filmning turli rakurs va aspektlarini bir biriga to’qnashtirish har bir nuqtai nazarlardan habardor qilish momtaj jarayoniga bo’g’liq” . Birgina rejissor butun boshli jamoani boshqaradi. Rejissor yaratmoqchi bo’lgan filmini hayoliy lentadan o’tkazishi darkor. Knorejissor N Mixalkov aytadi ”Men biror ish boshlashdan oldin uni o’zim tasavvur qilishim kerak” deydi. Mana shunday “Ko’ra olishlik qobiliyati” kino rejissorda ma’lum darajada bo’lishi kerak. Agarda rejissorda kinemstografik ko’ra bilish bo’lmasa undan yetuk sviyali filmlar yaratishini umid qilmasak ham bo’ladi. ,Boshqaruvchilik qobiliyati, mustaqil fikri, o’tkir tasavvur rejissorda uyg’unlashgan bo’lishi darkor. Agarda rejissorda bu xususiyatlarida nuqson sezilsa, ko’p mashq, kitob mutoala qilish orqali ularni tuzatishi talab etiladi. ”Rejissorlik oqitilmaydi o’rganiladi” degan edi buyuk rejissorlardan biri. Rejissorda hayotning barcha sohalari bo’yicha mukammal tushuncha bo’lishi talab

etiladi .Gapimiz misolida: rejissor shifokorlar haqida film yaratmoqchi .Agarda unda shifokorlik kasbiga oid tushunchalar bo'lmasa aktiyordan bosh o'g'rig'i ,oshqozon og'rig'ini qoldiradigan dorini yozib berishini talab qilib tursa.Bu uning o'ta saviyasizligini bildirdi.Butun jamoa oldida izza bo'lishiga olib keladi.Kinorejissor albatta rassomchilikdan, operatorlikdan, musiqadan ham bilimlarini oshirib borishi lozim kezi kelganda bilganlari asqotishi aniqdir Kinorejissor hayotida tasviriy san'atning o'rni o'zgacha mukammal tasviriy san'at asari butun boshli kinoning tug'ilishiga turtki bo'lishi mumkin.Shuning uchun ham bo'lajak kinorejissorlardan tasviriy san'at asarlarini chuqur o'rganish talab etiladi negaki ularning tasavvurlarini oshirish , fikrlash doirasini kengaytish tasvirni ko'ra bilish qobiliyatini o'stirish uchun.

Kinorejissorning yozishga ham qobiliyati bo'lishi chunonan uo'z senariysini yarata olishi, xohlagan maqsadini, fikrlarini qog'ozga tushira olishi lozim.Kinoda rejissor senariy bilan tanishib chiqishi, shu asarni ko'z oldida ekranlashtira olsagina asarga qo'l urishi mumkin. Asarni tushunmasdan uning g'oyasi, demoqchi bo'lgan so'ziga bu orqali tomoshabinga qanday ma'naviy ozuqa bera olishini bilmasdan asarga qo'l ursa shubhasiz bu asar tomosabinlar uchun eng tushunarsiz film bo'ladi.Rejissor fantaziyasi bu uning eng kuchli qurolidir.

Kino яратиш rejissordan faqatgina aqliy mukammallikni talab qilmoqda.

”Rejissor yuksak darajadagi aktiyor”dir deya takidlagan edi buyuk rejissor K. S. Stanislavskiy . Albatta rejissor filmdagi har bir obrazning to'g'ri talqinini topishi va buni aktiyordan talab qilishi kerak buning uchun esa u aktiyorlik mahoratini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Qolaversa aktiyorning nutq madaniyati ham katta ahamiyatga egadir.Istisno hollarda rejissor uni ko'rishi va talqinini to'g'rilashi kerak buning uchun esa rejissorning nutq madaniyati yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Demak rejissor usta notiq ham bo'lishi kerak emasmi.Shu kabi rejissor boshqa sohalarni ham yuqorida ta'kidlab o'tganlarimiz butun bir jamoaning ishini mukammal nazorat ostida bo'lishi shart.

Asar tanlashda dramaturgic yuqori tushunchaga ega bo'lmog'I lozim asarni o'qib chiqib uning to'g'ri janirini anglay olishi uning g'oyasini demoqchi bo'lgan so'zini chuqur his etish shart.

Hozirgi kunda Filmning hattoki janirini ham to'g'ri anglamay turib uni ko'r ko'rona yaratish jarayonlari ham yo'q emas Film janirini anglay olish bu uning shakliini bilib olish demakdir. Filmda dramaturg va rejissor fikri bir joydan chiqishi film muaffaqiyatidan dalolatdir. Kinoda ba'zida mualliflik kinosi deymiz . Bunday filmlarning muallifi , rejissori ham bir odam bo'ladi. Bunday hollarda Rejissor o'z fikrini qog'ozga tushira olishi va shu asosda film yaratishi ham katta yutuq. Rejissorlik shartli ravishda 2 ga bo'linadi. Birinchisi "aktiyorlik rejissori . Kinoning bu turida rejissor kinoning barcha tasviriyy vositalarida aktiyor imkoniyatlaridan foydalanadi. Bunday rejissorlarimiz N G'aniev, Sh.Abbosov, E.Eshmuhammedov, A.Xamroevlardir.

Ikkinchi tur rejissorlar esa kinoning barcha imkoniyatlari orqali filmni yaratadi. Bu tur rejissorlar K Yormatov, L Fayziev kabilardir. Har bir tur rejissor film kompozitsiyalarini turlich joylashtirib chiqishi mumkin. Rejissor yaratuvchi rejissor muallif .Kinorejissorlar milliy urf odatlarimizni qadriyatlarimizni aks ettirgan yuksak saviyali filmlar yaratish talab etiladi.Hech bir millat o'zi uchun yod bo'lgan urf odatlarni qadriyatlarni aks ettirgan filmlarni hech qachon ijobiy qabul qila olmaydi.

Muhtaram Prezedentimiz I A Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida shunday ta'kidlaydi "Bizning kino san'atimiz tobora rivojlanib borayotganligi va turli festivallarda sovrinlarga ega bo'layotganligi maqtovga sazovor albatta,lekin hozirgi kunda haqiqiy milliy ruhdagi kinofilmlarda yoshlarimizga o'rnak bo'la ldigan Zamonamiz ahramonini ko'rmayapmiz va bu yo'lda kino ijodkorlarimizga katta ishonch bildirib qolamiz" deya kino ijodkorlaga yuzlandi va haqiqiy durdona filmlarimiz "Toxir va Zuhra", "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan" kabi filmlarni alohida ta'kidlab o'tadi. Bu ishonch albatta rejissorlarga va kino jonkuyarlariga nisbatan bildirilmoqda .Bu ishonchni oqlash uchun rejissorlarimiz ko`proq izlanishlar va imkoniyat darajalarini cheklab

olmasliklari, keng doiradagi filmlar bilan tomoshabinni o'z ortidan ergashtira olishi darkor. Kinoning yutug'i ham shunda uni bir vaqtning o'zida millionlab insonlar qalbiga kirib borishidir. Kinoning rivoj topib borayotgan bir davrda rejissorlardan ham yuksak saviya, madaniyat egasi va har bir soha bo'yich chuqur bilim egasi bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I A Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". Toshkent
2. X Abulqosimova "Kino san'ati asoslari"
3. M Muxammedov "Rejissura asoslari"
4. X Fayziev "Ovozsiz kinomatografiyadagi operatorlik san'ati tarixidan"